



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI

140157, Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy. Tel.: (66) 2304270, 2312093, e-mail: samarkand@exat.uz, info@samarkand.uz

24«aprel»2024 yil.

04-04/1520-son

**O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasiga**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligiga**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar” ro‘yxatining 32-bandida, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning tashqi yoki ishonchli boshqaruvga berilgan davlat ulushi mavjud bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, ishonchli boshqaruvchi tomonidan jalb qilingan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har chorakda davlat organlari va tashkilotlari rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi belgilangan.

Mazkur topshiriq ijrosi bo‘yicha viloyatda vazirlik va idoralarning tashqi yoki ishonchli boshqaruvga berilgan davlat ulushi mavjud bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, ishonchli boshqaruvchi tomonidan jalb qilingan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mavjud emasligini ma’lum qilamiz.

Viloyat hokimining  
o‘rinbosari



O.Xamrayev